

**SEREBRAL FALAJLANISHGA EGA BO'LGAN BOLALARDA
HARAKAT VA NUTQ NUQSONLARINI KORREKSIYALASHDA
MUTAXASSISLARNING HAMKORLIKDAGI FAOLIYATI**

PhD dotsent M.U. Xamidova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Maktabgacha va boshlang'ch talim metodikasi kafedrasи

Annotatsiya:

Ushbu maqolada serebral falajlanishga ega bo'lgan bolalarda uchraydigan harakat va nutq nuqsonlarini bartaraf etishda mutaxassislarning hamkorlikdagi faoliyati haqida ma'lumot berilgan.

Аннотация: В статье представлена информатия о совместной деятельности специалистов по устранению двигательных и речевых дефектов у детей с ДЦП.

Bolalar serebral falaji (BSF) – bosh miyaning harakat zonalari va harakatlarni o'tkazuvchi yo'llarining birlamchi jarohatlanishi bilan namoyon bo'luvchi markaziy nerv tizimi kasalligi. Bolalar serebral falajida miyaning harakat va nutq harakat tizimlarining erta organik jarohatlanishi kuzatiladi.

Ushbu nuqsonlarning sabablari turli-tuman bo'lishi mumkin: infektion kasalliklar, ayniqsa virusli infektion kasalliklar; xomiladorlik davrida zaharlanish va turli xildagi jarohatlar; surunkali kasalliklar; ona va homilaning qon guruhi yoki rezus faktori bo'yicha o'zaro mos kelmasligi hamda boshqa sabablar; ba'zi holatlarda esa, masalan onaning tug'ruq vaqtida kamchiliklarga yo'l qo'yilishi natijasida kelib chiquvchi tug'ruq jarohatlari; xomilaning o'z o'qiga o'ralib qolishi natijasida bolada kislorod yetishmasligining paydo bo'lishi va buning oqibatidagi bosh miya nerv hujayralarining zararlanishi.

Serebral falajangan bolalarning rivojlanishidagi psixo-jismoniy nuqsonlar birinchi navbatta harakat, sensor va nutqiy kamchiliklar bilan bog'liqdir. Bolalar serebral falajiga ega bo'lgan bolalarda barcha harakat funksiyalarining shakllanishi orqada qoladi va kamchiliklar bilan shakllanadi: bolalarning boshini tutishi, o'tirish, turish, buyumlar bilan harakatlarni amalga oshirish malakalari katta qiyinchilik bilan va juda kech rivojlanadi. Bolalar serebral falajining giperkinestik turida umumiy va artikulyatsion motorikaning quyidagi kamchiliklari kuzatiladi:



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st November - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

mushaklar tonusining o‘zgaruvchan xarakateri (distoniya), ehtiyorsiz majburiy harakatlar; harakat va nutqiy jarayonlarning hissiy namoyon bo‘lishi, statik qomat va xolatni ushlab turishning yetarli emasligi. Tonik zo‘riqishlar artikulyatsion, nafas mushaklari, xiqildoq muskullari bo‘ylab tarqalishi, hamda ovoz xosil bo‘lishi va nafasning o‘ziga xos buzilishlarini keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu xolatlar 90% xolatlarda kuzatiluvchi giperkinetik (qobiq osti) dizartriyaga xosdir.

Bolalar serebral falajlanishida dizartriyaning o‘ziga xosligi artikulyatsion dispraksiyaning namoyon bo‘lishi hisoblanadi, bu esa maqsadli harakatlarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi va tovushlarni talaffuz qilishdagi nuqsonlarni yanada og‘irlashtiradi. Bolalar serebral falajida logopedik ishlarning asosiy vazifasi artikulyatsion xolat va harakatlarni his etishni rivojlantirish, artikulyatsion dispraksisni oldini olishdir. Artikulyatsion harakatlarni his etishni yaxshilash uchun qarshilik ko‘rsatish mashqi, ko‘zgu yordamida ko‘rib nazorat qilish mashq va yopiq ko‘zlar bilan nazorat qilish mashqlarini almashtirib bajarish ishlari qo‘llaniladi.

Bolaning ichki va tashqi nutqini, uning balandligi va kuchini, tovushlarni talaffuz qilishini, fonematik idrokini, nutqning leksiko-grammatik tomonlarini aniqlab olish kerak bo‘ladi.

Dizartriyada erta amalga oshiriluvchi logopedik ishlar bosqichma-bosqich olib boriladi.

Birinchi bosqich – tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, uning asosiy maqsadi: artikulyatsion tuzilmalarni

shakllantirishga artikulyatsion apparatni tayyorlash; nutqiy muloqot ehtiyojini uyg‘otish, ichki nutqni aniqlash va rivojlantirish, nafas va ovozni korreksiyalash.

Logopedik ishlar dori-darmon bilan davolash, fiziodavolash, uqalash va davolovchi jismoniy tarbiyalar bajarilishi jarayonida o‘tkaziladi.

Ikkinchi bosqich – dastlabki muloqot qilish, talaffuz malakalari shakllantirilib boriladi. Uning asosiy maqsadi: nutqiy muloqotni va tovushlar analizini rivojlantirish. Artikulyatsion nuqsonlarni korreksiyalash, artikulyatsion harakatlarni rivojlantirish, ovozni rivojlantirish, nutqiy nafasni korreksiyalash, artikulyatsion harakatlarni his qilishni rivojlantirish, kaft va qo‘l barmoqlarining mayda motorikasini rivojlanirish kabi ishlar amalga oshiriladi.



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st November - 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

Spastik dizartriyada logopedik ish tizimining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

1. Artikulyatsion apparat, mimika mushaklari va qo‘l, oyoqlardagi tonusni normallashtirish;
2. Kinestetik nazoratni shakllantirish va rivojlantirish: tovushning artikulyatsiyasiga ko‘ra logoped yordami bilan bolaning lablari va tilini ma’lum bir xolatga keltirish; artikulyatsion muskullarni uqalash;
3. Talaffuzni eshitish orqali nazorat qilishga o‘rgatish va fonematik tahlil qilishni rivojlantirish;
4. Propriotseptiv nafas mushaklarini normallashtirish;
5. Fonatsiyadan tashqari nutqiy nafasni shakllantirish;
6. Nutqiy nafas va ovoz chiqarish hamkorligini shakllantirish;
7. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni korreksiyalash.

Giperkinetik dizartriyani korreksiyalash uchun olib boriluvchi logopedik ishlarda majburiy harakatlarni yo‘qotishga juda katta ahamiyat beriladi, ish jarayonida quyidagi asosiy bosqichlar ajratiladi:

1. Bola tomonidan ihtiylorsiz harakatlarni jadal va miqdoriga ko‘ra eng kam amalgamoshirilishini ta’minlovchi xolatni tanlash;
2. Psixoterapevtik tushuntiruvchi ta’sir, turli uqalash usullari, statik va dinamik passiv harakatlar yordamida mushaklarni bo‘sashtirishga o‘rgatish asosida yuz muskullarini tinch xolatda ushlab turishni tushuntirish;
3. Tovushsiz artikulyatsiya vaqtida to‘g‘ri nutqiy nafasga o‘rgatish;
4. Unlilarni talaffuz qilish vaqtida to‘g‘ri nutqiy nafas olishni shakllantirish;
5. Tovushlarni talaffuz qilishga o‘rgatish;
6. To‘g‘ri talaffuz qilish va to‘g‘ri intonatsiyani (ohangni) o‘rgatish;

Miyacha dizartriyasida logopedik ish tizimining asosiy yo‘nalishlari quyidalar:

1. To‘g‘ri nafasni shakllantirish;
2. Ovoz ustida ishlash: ovozning kuchi va balandligini rivojlantirish va o‘zgartirish;
3. Ovoz tembrini rivojlantirish;
4. Ohangdorlikni rivojlantirish bo‘yicha ishlash.

Differensiyalangan eshituv idrokining va tovushlarni tahlil qilishning rivojlantirilishiga, ko‘rvu - kinestetik sezgini rivojlantirish yo‘li yordamida

artikulyatsion harakatlarni idrok etishni oshirish ustida ishlashga katta e'tibor beriladi.

Foydalaniman adabiyotlar

1. Mo'minova L.R., Aypurova M.Y. Logopediya. Т., 1993 у.

2. Филичёва Т.Б., Чиркина Г.В. Коррекционного обучения и воспитание детей 5-летнего возраста с общим недоразвитием речи. – М.: 2011.

